VIRTUAL KUTUBXONALARDAN FOYDALANISH: ZAMONAVIY TA’LIM VA ILM-FAN TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI

Azamova Layloxon Shokirjon qizi

Qo‘qon davlat universiteti 1-kurs magistranti

layloxonazamova53@gmail.com

Annotatsiya. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida insoniyat hayotining barcha sohalarida raqamli tizimlar keng joriy etilmoqda. Xususan, ta’lim, ilm-fan va madaniyat sohalarida virtual kutubxonalar faoliyati tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. An’anaviy kutubxonalar asrlar davomida inson tafakkuri, bilim va ma’naviy merosini saqlab kelgan bo‘lsa, bugungi kunda virtual kutubxonalar ushbu vazifani yangi bosqichga olib chiqdi. Endilikda foydalanuvchi dunyoning istalgan nuqtasidan turib, internet orqali kerakli kitob, maqola, dissertatsiya, ilmiy ma’lumot yoki tarixiy manbaga tezkor murojaat qilishi mumkin. Shu bois virtual kutubxonalardan foydalanish masalasi nafaqat texnologik, balki ijtimoiy-ma’rifiy ahamiyat kasb etuvchi dolzarb mavzulardan biridir.

Annotation. The rapid development of information and communication technologies has led to the widespread introduction of digital systems in all spheres of human life. In particular, virtual libraries are becoming increasingly important in the fields of education, science, and culture. While traditional libraries have preserved human thought, knowledge, and spiritual heritage for centuries, today virtual libraries have elevated this mission to a new level. Users can now access necessary books, articles, dissertations, scientific information, or historical sources quickly via the Internet from any part of the world. Therefore, the use of virtual libraries is considered not only a technological issue, but also an urgent topic of social and educational significance.

Аннотация. Стремительное развитие информационно-коммуникационных технологий привело к широкому внедрению цифровых систем во все сферы жизни человечества. В частности, деятельность виртуальных библиотек приобретает всё большее значение в области образования, науки и культуры. Если традиционные библиотеки на протяжении веков сохраняли человеческую мысль, знания и духовное наследие, то сегодня виртуальные библиотеки вывели эту миссию на новый уровень. Теперь пользователь может из любой точки мира через Интернет быстро получить доступ к необходимым книгам, статьям, диссертациям, научной информации или историческим источникам. Поэтому использование виртуальных библиотек является не только технологическим вопросом, но и актуальной темой, имеющей социально-просветительское значение.

Kalit so‘zlar: virtual kutubxona, elektron kutubxona, raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta’lim tizimi, ilm-fan taraqqiyoti, elektron resurslar, masofaviy ta’lim, ilmiy tadqiqot, raqamli ta’lim, axborot manbalari, innovatsion ta’lim, bilimlar bazasi, elektron katalog, zamonaviy ta’lim.

Keywords: virtual library, electronic library, digital technologies, information and communication technologies, education system, scientific development, electronic resources, distance education, scientific research, digital education, information sources, innovative education, knowledge base, electronic catalog, modern education.

Ключевые слова: виртуальная библиотека, электронная библиотека, цифровые технологии, информационно-коммуникационные технологии, система образования, развитие науки, электронные ресурсы, дистанционное образование, научные исследования, цифровое образование, источники информации, инновационное образование, база знаний, электронный каталог, современное образование.

Zamon rivojlanib borgani sayin inson hayotiga va ijtimoiy faoliyatiga raqamli texnologiyalar kirib kelmoqda. Bu esa ko‘plab qulayliklar va yengilliklar bermoqda va natijada bu texnologiyalarni yanada rivojlantirish, undan foydalanish yo'llarini izlash ehtiyojini orttirmoqda. Shu bilan birgalikda, ilm-fan taraqqiyoti ham jadal rivojlanib, elektron resurslardan foydalanish talabi oshib bormoqdaki, uning yuqorilab ketayotgan ko‘rsatkichlarini inkor qilib bo‘lmaydi. Virtual olamdagi kutubxonalar o'yin-kulgi va ta'lim maqsadlarida ishlatilishi mumkin bo'lgan immersiv 3D muhitining bir qismidir[1; 224]. Bundan kutubxonalar orqali ma’lumotlar tez va oson topiladi, bir kitobning turli xil versiyalari, ya’ni audiovisual, video, matn shakli namoyon bo‘lib, tanlov imkoniyatini paydo qiladi.

Virtual kutubxona — bu elektron shakldagi adabiyotlar, ilmiy manbalar, audiovizual materiallar hamda boshqa axborot resurslarini internet tarmog‘i bilan bir joyga to‘plovchi va foydalanuvchilarga taqdim etuvchi axborot tizimidir. Bunday kutubxonalarda bosma adabiyotlarning raqamlashtirilgan nusxalari, elektron kitoblar, ilmiy jurnallar, maqolalar, ensiklopediyalar, lug‘atlar va turli ma’lumot bazalari mavjud bo‘ladi. Elektron axborot resurslari jamlangan va foydalanuvchiga tarmoq orqali taqdim etiladigan tizimlar zamonaviy kutubxonachilikning yangi bosqichini tashkil etadi. Bu jarayon an’anaviy fondlarni raqamlashtirish bilan chambarchas bog‘liqdir[2; 312].

Raqamli kutubxona bu shunchaki elektron hujjatlar ombori emas, balki tanlangan, tartibga solingan va foydalanuvchiga qulay tarzda taqdim etilgan axborot tizimidir[3; 12]. Virtual kutubxona mazmuni aynan shu boshqaruv tizimida namoyon bo‘ladi Virtual kutubxonalarning asosiy mohiyati — bilim olish jarayonini qulaylashtirish, axborotga erkin kirishni ta’minlash va ilmiy izlanishlarni jadallashtirishdan iboratdir. Ular zamonaviy jamiyatning “raqamli xotirasi” sifatida xizmat qiladi.

Raqamli kutubxonalar foydalanuvchilarga axborot resurslaridan joylashgan hududidan qat'i nazar, tezkor va qulay foydalanish imkonini yaratadi. Shu jihatdan virtual kutubxonalar an'anaviy kutubxona xizmatlarining zamonaviy elektron shakli sifatida namoyon bo'ladi[4; 7.]. Ushbu kutubxonalarning eng muhim afzalligi sifatida vaqt va makon cheklovining yo'qligidir. Foydalanuvchi kunning istalgan vaqtida, uyida, ish joyida yoki safarda bo'lgan holda kerakli manbaga murojaat qilishi mumkin. Bu esa ayniqsa talabalar, magistrantlar, tadqiqotchilar va o'qituvchilar uchun katta qulaylik yaratib, ularni bunday qulaylikdan kengroq foydalanishga olib keladi.

Virtual kutubxona insoniyat bilimlarini geografik chegaralarsiz tarqatish imkonini beruvchi global axborot infratuzilmasining muhim qismidir[5; 42], balki barcha manbalarni yagona elektron makonda jamlab, o'quvchi uchun kitobning kerakli nusxasini tezkor topish, undan istalgan vaqtda hamda istalgan hududdan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Shu jihatdan u an'anaviy kutubxona xizmatlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida takomillashtirib, ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim tizimining rivojlanishi virtual kutubxonalarga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirdi. XXI asrda virtual kutubxonalar ta'lim tizimiga kuchli ta'sir ko'rsatib, masofaviy ta'lim va mustaqil o'rganishni rivojlantiradi[6; 89]. Talabalar ma'ruza materiallari, o'quv qo'llanmalar, ilmiy maqolalar va metodik tavsiyalarni elektron shaklda olmoqda. Bu esa mustaqil ta'lim samaradorligini oshiradi. Shuningdek, o'qituvchilar dars jarayonida elektron manbalardan foydalanib, mashg'ulotlarni interfaol va mazmunli tashkil etmoqda. Natijada ta'lim sifati oshib, zamonaviy kompetensiyalar shakllanmoqda. Bundan tashqari, yangi tushunchalarni o'rganush, ta'limning istiqbolli jarayonini tezlashtirish ko'rinishi tezlashadi.

Elektron kutubxonalar ta’lim jarayonida tezkor axborot olish, masofaviy ta’limni rivojlantirish hamda ilmiy tadqiqot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi[2; 425]. Virtual kutubxonalar tadqiqotchiga mahalliy va xorijiy manbalardan foydalanish imkonini beradi. Ilmiy maqolalar bazalari, dissertatsiyalar fondi, statistik ma’lumotlar va tarixiy hujjatlar bir necha daqiqada topiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, virtual kutubxonalar zamonaviy axborot texnologiyalari asrining bebaho ne’matlaridan biridir. Ular bilim olish jarayonini soddalashtiradi, ilmiy izlanishlarni jadallashtiradi, vaqt va mablag‘ni tejaydi hamda keng axborot maydoniga yo‘l ochadi. Shunday ekan, virtual kutubxonalardan oqilona va samarali foydalanish har bir talaba, o‘qituvchi hamda tadqiqotchining muhim ko‘nikmasiga aylanishi zarur. Zero, bugungi kunda bilimga eltuvchi yo‘l ko‘pincha raqamli sahifalardan boshlanadi.Bundan tashqari, undan oqilona foydalanish, kerakli manbani topa olish ko‘nikmasini shakllantirish zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tan, Seng-Chee; Vong, Yin-Mei (2011). "3D Virtual muhitda immersiv hikoyalar orqali tilni o'rganish". 3D immersiv olamlarda o'qitish va o'rganish. IGI Global. 211-225 betlar. doi: 10.4018/978-1-60960-517-9.ch012. ISBN 978-1-60960-517-9.

2. Воройский Ф.С. Информатика. Новый систематизированный толковый словарь-справочник. – Москва: Физматлит, 2003. –760с.

3. William Y. Arms Digital Libraries. – L.: MIT Press, 2000. – 287 p.

4. Lesk M. Practical Digital Libraries: Books, Bytes and Bucks. – San Francisco: Morgan Kaufmann Publishers, 1997. – 297 p.

5. Borgman C.L. From Gutenberg to the Global Information Infrastructure: Access to Information in the Networked World. – Cambridge, Massachusetts: MIT Press, 2000. – 324 p.

6. Fox E.A., Marchionini G. (eds.) Digital Libraries: Introduction to Intelligent Access to Online Information. – Amsterdam: Elsevier Science, 1998. – 289 p.